

Yosh olim Bolta Teshayev ko'p yillar mobaynida "Bir nomalum shoir haqida jiddiy tadqiqot olib borgan edi. Yaqinda u ana shu mavzudagi dissertatsiyasini yakunladi. Quyida biz mazkur dissertatsiyadan parcha keltiramiz.

"Dissertatsiyaning asosiy qismiga o'tishdan avval uning yozilish jarayonida qomusiy bilimga ega mashhur va mo'btabar, daryoqalb, nazokatli, mehribon olimlarimiz (keyin ularning ism-shariflari-yu, unvonlari birma-bir keltirilgan)ga o'zimning samimiy, chuqur va cheksiz minnatdorchiligidagi izhor etaman.

Shuningdek, men mazkur dissertatsiyaning yozilishida bevosita ishtirok etgan, yani mavzuni topgan - Talat Talatovga, manbalarni o'rganib chiqqan - Midhad Midhadovga, iqtiboslarni to'plagan - Ahmad Ahmadovga, ularni asl nusxaga solishtirib chiqqan - Asad Asadovga, tarixiy qo'lyozmalarni o'qib, zamonaviy alfavitga ko'chirgan - Qudrat Qudratovga, ularni ona tilimizga tarjima qilgan - Hidoyat Hidoyatovga, so'zlar, ism va atamalar etimologiyasini aniqlagan - Fikrat Fikratovga, to'plangan malumotlarni tartibga solgan - Mamat Mamatovga, ularni umumlashtirgan - Nodir Nodirovga, materiallarni jamlab, so'nggi xulosa chiqargan - Nemat Nematovga, dissertatsiyaning qoralamasini yozgan - Shavkatoy Shavkatovaga, uni oqqa ko'chirgan - Izzatxon Izzatovaga, kompyuterda ko'chirgan - Ismatxon Ismatovaga va, nihoyat, uni muqovalagan - Karapet Karapetyanga o'zimning samimiy minnatdorchiligidagi izhor etaman.

Mazkur tadqiqot nomalum asrda, nomalum shaharda yashab ijod etgan nomalum shoirga bag'ishlanadi. Bazi taxminlarga ko'ra, nomalum shoirning ismi Chinor bo'lган. Biz uni, shartli ravishda, "Chinor-Gardamoni-Baylaqoni deb atadik. Zero, u Gardamonda tavallud topgan bo'lса, hech shubhasiz, "Gardamoni taxallusini tanlagan bo'lardi. Magarkim, Baylaqonda tug'ilса, tabiiyki, taxallus "Baylaqoni bo'lмog'i aniqdир. Chinor-Baylaqoni-Gardamoni tarjimai holini o'rganish borasida olib borilgan ko'p yillik izlanish va tadqiqotlar, afsuski, biror bir natija bermadi. Bundan qati nazar, Chinor o'z zamonasining qomusiy bilimga ega, asarlarida mazlum xalqning hurriyat va adolat haqidagi orzu-armonlarini tarannum etgan ulkan shoiri bo'lган, deya olamiz. Sherlarida mazlum xalqning orzu-umidlari, armonlarini kuylagan ulug' shoirning, baxtimizga qarshi, hozirda qo'limizdagи g'azallarning aynan uning qalamiga mansubligini isbotlovchi birorta manbaga ega emasmiz. Bundan qati nazar, biz bu sohir satrlar Chinor-Baylaqoni-Gardamoni day buyuk insонparvar shoir qalamiga mansubligiga ishongimiz keladi.

Bazi olimlarimiz "Bulbul gulga zor, men senga xumor degan hikmatli satr Chinor-Baylaqoni-Gardamoni qalamiga mansub, degan fikrdalar. Shuningdek, bir guruh tadqiqotchilar "Mitti bulbul xonishi - ko'nglimning oroyishi degan sohir satr ham unga tegishli deb taxmin qilishmoqda. Biz ham, ko'plab manbalarni ko'zdan kechirib, shu paytgacha muallifi nomalum bo'lган "Saratonda yashnagan bo'ston - qahratonda bo'ladi xazon degan hikmatli satr ham Baylaqoniya tegishli degan xulosaga keldik. Xo'sh, biz nimalarga asoslangan holda shunday xulosaga keldik?

- a) satrning muallifi nomalum, demak, mazkur hikmat Baylaqoniya tegishli emas, deyishga asos yo'q;
 - b) buyuk shoirning asarlarida "bulbul, "gul, "qushginam, "assalom, "bahor kabi so'zlarni ko'p uchratamiz. Demak, ushbu obrazli so'zlar uning ijodida xarakterli o'rinni egallaydi;
 - v) Chinor-Baylaqoni-Gardamoni sheriyatiga xos bo'lган daholarcha soddalik, teranlik, kuzatuvchanlik va chuqur falsafiy mushohadalardan biz nihoyatda yetuk va ulkan ijodkorning siymosini ko'rib turibmiz.
- Chinor-Gardamoni-Baylaqoni yining qancha umr ko'rganligi bizga nomalum. Shunga asoslangan holda, taxmin qilishimizcha, shoir juda ko'p tashvish va dramatik voqealarga boy bo'lган katta hayot yo'lini bosib o'tgan, deya olamiz. Hayotning achchiq-chuchuklarini ko'p totgan ijodkor keksalik chog'ida dono fikrlarni aytishi tabiiy.
- Biz quyida shoirning topilmagan devonidan bir g'azal keltiramiz:

Nega kuymay, nega yonmay, yor ketdi,
Dardimning davosi, tanimdan mador ketdi,
Qomati sarv, ko'zlar xumor ketdi,
Do'zax azobiga tashlabon dildor ketdi,
Faqirni aldab, sallona-sallona - ozor ketdi.
Lolarang dudog'ingga fidoman-fido,
Yurakda yonar o't - o'tli nidoman-nido!
Bevafo sanamim baxt torim uzib ketdi,
Jodu ko'zlar oromim buzib ketdi,
Yuzi oy, marvariddir tishlari,
Chinorni zor etib, berahm nigor ketdi.

Ilova: afsuski, hozircha ushbu g'azalning Chinor-Gardamoni-Baylaqoni qalamiga mansub ekanligini tasdiqlaydigan hech qanday dalilimiz yo'q. Shuningdek, g'azalning uning devonidan olingani-yu, umuman devon bo'lganmi-bo'lmanmi, u ham hozircha bizga nomalum. Bazi taxminlarga ko'ra, Chinor-Gardamoni-Baylaqoni "qo'shma janrda g'azallar bitgan. Zamonaviy sheriyatimizda "Sochma uslub kashf etilgan bo'lса, shoir Chinor sheriyatda yangicha "qo'shma janrni kashf etgan. (Quyida keltiriladigan qo'shma, shubhasiz, uning qalamiga mansub deb o'laymiz.)

Qo'shma

Sen turganda gul sarg'aysa mayliga,
Yonog'ingda lola unsa mayliga,
Oq manglayda quyosh kulsa mayliga.
Murov tog'i kutmoqda - otni yeldir tezroq,
Yoshligimiz o'tmoqda - sharob keltir tezroq,
Go'zal dilbar meni to'yga chorlabdi,
Egnidagi gul libosi porlabdi.
O'animplar o'qtalsin nayza bizga erta-kech,
Qarg'a-quzg'un do'qidan lochin qo'rqqanmi hech,
Kulbamga yor kelsa xoh erta, xoh kech,

This is not registered version of TotalDocConverter
Dasturxangiga to'g'ish hozir emas mayliga!

Kunin bitsa, bir kun ham qolmaysan omon,
Yaxshiga yaxshiman o'zim, yomonga - yomon.
Chinorning qo'shmasin o'qing bo'lsa gar imkon,
Uni eshitganlar qoyil bo'lsin mayliga.

Ilova: ko'rib turganingizdek, xalq ijodiyotini chuqur bilgan shoir qo'shmani yangicha bo'yоq, yangicha istiora, yangicha qofiyalar bilan boyitib, sheriyatimiz marvarid shodasiga yangi durdonalar, nazm gulshanimizga yangi, xushbo'y gul navlarini tortiq etishga muyassar bo'lgan ijodkordir.

Chinor-Gardamoniy-Baylaqoniying bizga hali nomalam bo'lgan "Z harfi sheri mavjud. U sochma vaznda bitilgan bo'lib, shu paytgacha bu vazndagi sher zamonaviy adabiyotimizdagi novatorlik, degan fikrning noto'g'rilagini va bu janr adabiyotimizda qadimdan mavjud ekanligidan dalolat beradi. Shoir Chinor bundan yuz yillar, ehtimolki, ming yillar muqaddam sochma vaznda sherlar bitib, hozirgi davr adabiyotimiz rivojiga ham o'zining salmoqli ulushini qo'shishga ulgurgan. Bunga misol tarzida uning quyidagi sherida "Telefon atamasiga etibor berish kifoyadir.

Qulq tagida

Telefon go'shagi g'uvillaydi.

Undagi ovozzzz

Ariday zuvillaydi.

Zzorlanib

Zuvillab

Tinglaydi qulq.

Qulq zuvillaydi

Uni qunt bilan tinglaydi

Osha ovozzni

Yolg'izz

Zzorlangan

Ozzorlardan so'zlagan

Zzzarradek,

Zig'irdek

Ovozz!

Zzuvillama!

Qo'shni uyda ham

Zzuvillaydi

Bir nima!

Ilova: ushbu sochmadan shoirning ulkan istedod, kelajakda telefonning kashf etilishini karomat qilganligi hayrat va tahsinga sazovor. Bazi olimlarimiz bunday shaxs umuman tarixda bo'limgan, degan fikrni ilgari surishmoqda. Mazkur maqolada biz bu masalaga umuman to'xtalmaslikka jazm qildik, zero, bu nomzodlik dissertatsiyamiz mavzusiga kirmaydi. Nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgach, muallif doktorlik dissertatsiyasida tadqiqotlarni davom ettirib, shoir Chinor tarixda bo'lganmi-bo'limganmi degan savolga yaqindan yondashishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Xulosa:

Muallif Chinor-Gardamoniy-Baylaqoni y'azallarini yozishda bevosita ishtirot etgan g'azalnavis Jamshid Jamshidovga, qo'shmani bitgan baxshi Murshid Murshidovga va "Z harfi sherini to'qigan "33-77 raqamli kibernetik mashinaga o'zining chuqur minnatdorchiligini izhor etadi.